

## IJTIMOIIY-SIYOSIIY JARAYONLARDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI VA ROLI

**Xaydarova Muslima Umarjon qizi**

Fan va texnologiyalar universiteti 1-bosqich talabasi.

E-mail: [haydarovamuslima07@gmail.com](mailto:haydarovamuslima07@gmail.com)

**Ilmiy rahbar:** f.f.f.d., (PhD)., dotsent.v.b., R.O.Rasulov

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda xotin-qizlarning o‘rni va roli har tomonlama tahlil etiladi. Unda ayollarning davlat boshqaruvi, parlament faoliyati, mahalliy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlaridagi ishtiroki va ularning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, ayollarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar, gender tenglik siyosati, huquqiy kafolatlar, ta‘lim va iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar o‘rganiladi. Maqolada xotin-qizlar liderligini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishning dolzarb masalalari va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari tahliliy yondashuv asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari jamiyatda gender siyosatini kuchaytirish va ayollarning ijtimoiy rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, gender tenglik, ayollar faolligi, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, liderlik, huquqiy kafolatlar, demokratiya, islohotlar, ayollar ta‘limi, siyosiy ishtirok, ayol tadbirkorlar, modernizatsiya, gender siyosati.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo sahnasida yangi kuch — ayol ovozi tobora balandroq eshitilmoqda. Bu ovoz faqatgina turmush tashvishlari haqida emas, balki kelajak, taraqqiyot, adolat va islohotlar haqida so‘zlaydi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar endi bir jinsning emas, balki jamiyatning ikki qanoti — erkak va ayollarning hamkorlikdagi parvozi orqali rivojlanmoqda. Chunki bir qanot bilan uchish mumkin emas.

Tarix davomida xotin-qizlarning uzluksiz mehnati, salohiyati va bilimi ko‘p hollarda soyada qolgan bo‘lsa, bugun ular nafaqat jamiyat “orqa kuchi”, balki uning eng faol harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Parlament zalidan tortib mahalla yig‘inlariga qadar, xalqaro minbarlardan innovatsion startap maydonlarigacha — har qadamda ayollar ovozi, tafakkuri, tashabbusi sezilmoqda. O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar esa aynan shu jarayonni tezlashtirib, ayolning jamiyatdagi rolini yangicha mazmunda talqin etmoqda. Endi xotin-qiz siyosat subyekt



emas, balki uning faol ishtirokchisi, qaror qabul qiluvchi, strategiya belgilovchi, jamiyat taraqqiyoti uchun javobgar shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Shu sabab, bugungi maqola oddiy statistik raqamlar yoki rasmiy gaplar yig'indisi emas. Bu — ayolning ijtimoiy-siyosiy maydondagi uyg'onishi, yangi davr ayolining kuchi, mas'uliyati va salohiyatiga bag'ishlangan tahliliy kuzatuvdir. Chunki ayol faolligi oshgan jamiyatning ertasi — yorug'roq, mustahkamroq, dadilroq bo'ladi.

**Asosiy qism.** Bugun O'zbekiston siyosiy maydoniga nazar tashlasak, unda ayollar faolligi endi statistik raqam emas — balki real jarayon, ko'zga ko'rinadigan kuchga aylanganini ko'ramiz. Gender tenglik deganda, ko'pchilik odatda ayol va erkakning bir-biriga o'xshashi yoki bir xil bo'lishini tushunadi. Aslida, bu tushuncha biroz boshqacha — gender tenglik, avvalo, ayol va erkakning huquq va imkoniyatlarda teng bo'lishi, jamiyatda o'z qobiliyatini erkin namoyon etish imkoniga ega bo'lishi demakdir. Ya'ni, har bir inson o'z iqtidorini, bilimini va salohiyatini so'zsiz ravishda rivojlantira olishi, o'z hayotini va faoliyatini erkin tashkil etishi kerak. Gender tenglik — bu adolatning namoyon bo'lishidir. Ayol ham, erkak ham inson sifatida bir xil qadriyatga ega, ularning farqi faqat biologik xususiyatlarda bo'lishi mumkin, ammo huquq va imkoniyat jihatidan ular to'liq tengdir. Shu sababli, jamiyatning har bir a'zosini gender tengligini ta'minlash orqali faollashtirish, nafaqat individual shaxslarning rivojlanishiga, balki mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotiga ham bevosita hissa qo'shadi. Parlament majlislarida qat'iyat bilan fikr bildirayotgan deputatlar, mahallalarda ijtimoiy muammolarni hal etayotgan faollar, tadbirkorlikni boshqarayotgan ayol rahbarlar — bularning barchasi yangi davr ayolining portreti. Ayollar endi faqat ijrochi emas; ular qaror qabul qiluvchi, tashabbus ko'rsatadigan, siyosiy jarayonlarni boshlovchi subyektga aylandi. Bu esa jamiyatni modernizatsiya qilishning eng samarali omillaridan biridir. Chunki ayolning siyosatga kirishi — oilaning, mahallaning, jamiyatning manfaatlari siyosatga kirishi demakdir.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019 yil 21 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida ayollarning o'rni va nufuzini mustahkamlashga alohida to'xtaldi.” [1]

Bizningcha, bu nutq O'zbekistonda gender tenglik va ayollarning siyosiy hamda ijtimoiy faolligini yanada rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Prezident ta'kidlagan fikrlar orqali ayollarning nafaqat oilaviy, balki davlat va jamiyat hayotidagi hissasi katta ahamiyatga ega ekani yana bir bor ko'rsatildi. Shu bilan birga, men

hamimzoning vazifamiz — ayollarning huquq va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni siyosiy va ijtimoiy hayotga faol jalb qilish yo‘lida sa’y-harakat qilish deganidir.

“2021-yilda O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha gender tengligiga erishish strategiyasi (“2030-yil strategiyasi”) qabul qilinganligi mamlakatning gender tengligiga erishish yo‘lidagi muhim yutuqdir. Biroq, rejalashtirishga strategik yondashuvni qo‘llash 2030-yil strategiyasini samarali amalga oshirishni ta’minlashning kalitidir.[2]

Biz ushbu strategiyani ilgari surgan mamlakatda kutilgan natijalarga erishish uchun izchil, tizimli va rejalashtirilgan tarzda harakat qilish juda muhim, deb hisoblaymiz.

“O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.” [3]

Bu ko‘rsatkichlar ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi faolligi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi va mamlakatda gender tengligi yo‘lida erishilgan muhim yutuq sifatida e’tirof etiladi.

“2014 yilda bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Qonunchilik palatasiga 8 (25%) nafar ayollar deputat etib saylangan, 2019 yilda esa bu ko‘rsatkich 5 (18,5%) nafarni tashkil etgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarida 2014 yil deputat ayollar soni 43 (15%) nafarni, 2019 yil 55 (25,7%) nafarni, tuman va shahar Kengashlarida esa 2014 yil 384 (16,8%), 2019 yil 416 (23,9%) nafarni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, bir qarashda Qonunchilik palatasiga ayollarning salmog‘i kamaygan”[4] di ammo hozirgi statistik ma’lumotlarga qarasaq Parlamentda ayollarning hozirgi va tarixiy vakilligi haqidagi ma’lumot. Ayollarning saylovlarda yoki qayta saylash jarayonlarida ishtiroki qanday bo‘lganini ko‘rish uchun “Saylovlar” yorlig‘ini ko‘ring.

	18-20	21-30	31-40	41-45	46-50	51-60	61-70	71-80	81-90	91 va unda yuqori	Har bir gender bo‘yicha jami
Erkak	0	2	26	24	13	17	11	1	0	0	94



Ayol	0	0	7	4	12	25	8	0	0	0	56
Har bir yosh oralig‘I bo‘yicha jami	0	2	33	28	25	42	19	1	0	0	150
	Jami 45: 63			Jami 46: 87							

So‘nggi saylov (yoki qayta saylash) vaqtidagi yosh	Umumiy	Erkaklar	Ayollar
30 yosh yoki undan kichik yoshdagi deputatlar ulushi	1.3%	1.3%	0.0%
40 yosh yoki undan kichik yoshdagi deputatlar ulushi	23.3%	19%	4.7%
45 yosh yoki undan kichik yoshdagi deputatlar ulushi	42.0%	35%	7.3%

Xulosa qilib aytganda, parlamentdagi yosh profili tajribali yetakchilarga tayanadi. Kelajakda parlamentning qarorlar qabul qilish jarayonlarida barcha avlodlarning fikrlari va ehtiyojlari aks etishi uchun yoshlarni, xususan yosh ayollarni siyosatga jalb qilish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

“«Gender tenglikka erishish sohasida 25 ta qonun hujjatlari qabul qilindi Ayollarning parlamentdagi soni 32 foizga yetib, O‘zbekiston dunyo bo‘yicha 37-o‘ringa ko‘tarildi. Xotin-qizlarning siyosiy partiyalardagi ulushi 44 foiz, oliy ta’limda 40 foiz, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Vazirlik va idoralarda 15 mingdan ziyod kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga yetdi, 6 nafar ayol hokim, bir nafari elchi etib tayinlandi»”[6] deya gender tenglik masalalari bo‘yicha raqamlarni ochiqdagan Senat raisi. O‘zbekistonda gender tenglik bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar sezilarli natijalar bergan. Qonun hujjatlari qabul qilinishi, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi ishtirokining oshishi, boshqaruv va rahbarlik lavozimlarida ulushining ortishi mamlakatda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilayotganini ko‘rsatadi, shuningdek, partiya, oliy ta’lim, tadbirkorlik va davlat boshqaruvidagi yutuqlar, gender siyosatining samarali va izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

“O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘sdi — 2024-yilda mamlakatda 2,1 million ayol tadbirkor faoliyat yuritmoqda, bu 2020-yilga

nisbatan yetti baravar ko‘p. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, tadbirkorlik sohasida ayollarning ulushi 35 foizga yetgan.”[7]

Bu nafaqat iqtisodiy mustaqillik va imkoniyatlarni oshiradi, balki mamlakatdagi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ayollarning hissasini kuchaytiradi. Ayollar tadbirkorligining barqaror rivojlanishi uchun genderga sezgir yondashuvni iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy siyosatlariga integratsiya qilish muhimdir.

O‘zbekistonning ijtimoiy va siyosiy hayotida ayollarning o‘rni kuchayib borayotganini Saida Mirziyoyeva faoliyati orqali ham ko‘rish mumkin. U ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, xususan, rahbarlik va tashkiliy lavozimlarda faolligini oshirishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etmoqda. Bu holat mamlakatda gender tengligini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan amaliy ishlarni yanada namoyon etadi.

“O‘zbekiston Senati va Respublika Komissiyasi, BMT Taraqqiyot Dasturi va Buyuk Britaniya hukumati moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi bilan 2024 yil 15 aprel kuni ayol siyosatchilar uchun besh kunlik trening dasturini boshladi. Dastur maqsadi: siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar va milliy kadrlar zaxirasi a‘zolarini gender tengligi sohasida yetakchilik ko‘nikmalari bilan ta‘minlash.”[8]

«Woman Leader in Politics: A Role Model» tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi o‘tkazildi, bu ayollarning siyosiy faoliyatga qiziqishini oshirish va jamiyatda ijobiy imidj yaratishga qaratilgan. Maqolada ta‘kidlanishicha, gender tengligi siyosatda nafaqat inqirozga tezkor javob berishni osonlashtiradi, balki turli ehtiyojlarni qondirishni ta‘minlaydi va siyosiy qaror qabul qilish jarayonida diskriminatsiyaga qarshi choralarni kuchaytiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ayollarning huquqlarini himoya qiluvchi 50 dan ortiq qonun qabul qilingan, yangi Konstitutsiya (58-modda) ayol va erkaklar teng huquqliligini kafolatlaydi.

“TOSHKENT, 2024 yil 8-mart– Xalqaro xotin-qizlar kunida UNICEF qizlarning ta‘lim olishiga sarmoya kiritish, imkoniyatlarini kengaytirish va yosh ayollar, jumladan, nogironligi bo‘lganlar uchun ish bilan ta‘minlashda teng imkoniyatlarini kengaytirishga chaqiradi. Bu O‘zbekiston gullab-yashnashining asosiy va zarur shartlari jumlasiga kiradi. So‘nggi dalillar shuni ko‘rsatadiki, muhandislik, ishlab chiqarish, qurilish va AKT dasturlarida ayollar ulushi atigi 17 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, fan, texnologiyalar, muxandislik va matematika (STEM) sohaslarida, xususan, tabiiy fanlar, texnika va texnologiya, tibbiyot va sog‘liqni saqlash fanlari, qishloq xo‘jaligi va veterinariya fanlari tadqiqotchilari orasida ayollar ulushi 37% ni tashkil qiladi.”[9]

O‘zbekistonda ayollar ta’limi va ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim natijalar bermoqda. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, qizlar va yosh ayollarning, jumladan nogironligi bo‘lganlarning ta’lim olish va ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatning gullab-yashnashining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar ayollarning ta’lim orqali yetakchilik, ilmiy va professional sohalarga jalb qilinishida sezilarli o‘shish borligini ko‘rsatadi va gender tengligini mustahkamlash yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

“2022 yilda Prezident farmoni bilan “Xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiyoti, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirish” bo‘yicha milliy dastur tasdiqlangan. 2022 yil 9 fevraldan boshlab, ayollarning xizmat staji, jumladan tug‘ruq ta’tili davri, 3 yildan 6 yilga uzaytirildi. Bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ish staji esa 16 yildan 18 yilgacha kengaytirildi.”[10]

Bu ma’lumotlar, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan milliy dastur xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dastur orqali ayollarning ish staji uzaytirildi, homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha nafaqalar joriy qilindi, ta’lim olish imkoniyatlari kengaytirildi, foizsiz kreditlar va magistratura shartnoma to‘lovlarini qoplash tartibi yo‘lga qo‘yildi. Bu ishlar ayollarning jamiyatdagi salohiyatini kuchaytirib, gender tengligini mustahkamlash va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ayollar faolligini oshirish va gender tengligini ta’minlash borasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimli va keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi. Shunday ekan, gender tenglikni faqat zamonaviylik yoki tashqi ko‘rinish belgisi sifatida emas, balki inson qadr-qimmatiga hurmat sifatida tushunish lozim. Har bir jamiyatning kuchi va barqarorligi erkak va ayolning bir-birini to‘ldirgan, qo‘llab-quvvatlagan, imkoniyatlarini teng ravishda rivojlantirgan joyida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, gender tenglik nafaqat adolat, balki jamiyatning samarali rivojlanishi va insonlarning o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishi uchun zarur asosdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. 21 iyun 2019 yil. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati, 2019. — B. 4.

2. O‘zbekiston Respublikasi Gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiya. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, 2021. — B. 12.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 14.12.2020 <https://kun.uz/48548464?q=%2Fuz%2F48548464&utm>
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. *O‘zbekiston Respublikasi parlament va mahalliy Kengashlar saylovlarining natijalari (2014–2019)*. — Toshkent: MSK nashriyoti, 2020. — B. 18–22.
5. Data on women | IPU Parline [Uzbekistan | Legislative Chamber | Data on women | IPU Parline: global data on national parliaments](#)
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. *Gender tenglikka erishish sohasida amalga oshirilgan ishlar va ayollarning siyosiy ishtiroki bo‘yicha ma‘lumotlar*. — Toshkent: MSK Axborot xizmati, 2023. — B. 3–5.
7. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar 23-APRIL, 2025 O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Ayollar tadbirkorligi rivoji bo‘yicha statistik ma‘lumotlar (2020–2024)*. — Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti,— B. 12–14.
8. [Empowering Women in Politics: Building Leadership for Gender Equality in Uzbekistan April 15, 2024 https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/empowering-women-politics-building-leadership-gender-equality-uzbekistan?utm](#)
9. UNICEF - <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/qizlar-talim-olishi-va-konikmalarga-ega-bolishi-uchun-sarmoya-kiritish-iqtisodiyotni>
10. O‘zbekiston barqaror rivojlanish va taraqqiyot uchun Gender tenglik strategiyasini joriy etmoqda. <https://voxparis.fr/en/news/uzbekistan-embraces-gender-equality-strategy-for-sustainable-development-and-progress/2023/06/15/?utm>
11. Rasulov Rustambek Odilovich - [The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development](#). Spanish Journal of Innovation and Integrity, ISSN: 2792-8268, Volume: 37, Dec-2024. <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/106/150>
12. Rasulov, R. . (2024). [The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth. Академические исследования в современной науке, 3\(48\), 124–132. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/61938](#)



13. Rasulov Rustambek Odilovich. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT (IJERO). <http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/417>

14. Rasulov Rustambek Odilovich. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi journal 10.26739/2181-9505.

<https://www.tadqiqot.uz/index.php/philosophy/article/view/11321>



Research Science and  
Innovation House

